

2023- yil yanvar-avgust oylari uchun
dastlabki ma'lumot



QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(75) 221-44-28



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Qashqadaryoda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-avgust oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **398851,5 ming AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **22314,7 ming AQSH** dollariga yoki **5,9 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-avgust oylarida ming AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **398851,5** **+5,9 %**
(2022- y.: **376536,8**)



Saldo

2023- y.: **115397,7**
(2022- y.: **24034,0**)



Eksport

2023- y.: **257124,6** **+28,4 %**
(2022- y.: **200285,4**)



Tovarlar: **254791,7**



Xizmatlar: **2332,9**



Import

2023- y.: **141726,9** **-19,6 %**
(2022- y.: **176251,4**)



Tovarlar: **140419,2**



Xizmatlar: **1307,7**






Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.






TSAda eksport hajmi **257124,6** ming AQSH dollariga (**28,4 %** ga ko‘paydi) va import hajmi **141726,9** ming AQSH dollariga (**19,6 %** ga kamaydi).

Hisobot davrida **115397,7** ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.




QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-avgust oylarida ming AQSH dollari)

Turkiya	XXR	Rossiya Federatsiyasi	BAA	Qozog‘iston
TSA – 76494,8	TSA – 69187,1	TSA – 63529,3	TSA – 29475,9	TSA – 24973,0
Eksport: 63955,3 Import: 12539,5	Eksport: 22123,5 Import: 47063,6	Eksport: 45599,0 Import: 17930,3	Eksport: 29434,2 Import: 41,7	Eksport: 11496,3 Import: 13476,7
 19,2 %	 17,3 %	 15,9 %	 7,4 %	 6,3 %

Pokiston	Latviya	Polsha	Misir	Vetnam
TSA – 15238,3	TSA – 15085,4	TSA – 13299,8	TSA – 8650,7	TSA – 8240,4
Eksport: 14086,9 Import: 1151,4	Eksport: 65,1 Import: 15020,3	Eksport: 12268,8 Import: 1031,0	Eksport: 8634,8 Import: 15,9	Eksport: 8178,1 Import: 62,3
 3,8 %	 3,8 %	 3,3 %	 2,2 %	 2,1 %

Qashqadaryo viloyati jahonning **68** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Turkiyada (**19,2 %**), XXRda (**17,3 %**), Rossiya Federatsiyasida (**15,9 %**), BAAda (**7,4 %**), Qozog‘istonda (**6,3 %**), Pokistonda (**3,8 %**) va Latviyada (**3,8 %**) qayd etilgan.

 Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Qirg‘iz Respublikasi va Qozog‘iston kabi qo‘shni davlatlar bilan TSAda so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO‘LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-avgust oylarida ming AQSH dollari)



Turkiya – 76494,8



Rossiya Federatsiyasi – 63529,3



BAA – 29475,9



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan **12** ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi va BAA davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **8** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-avgust oylarida ming AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Turkiya	80669,3	102988,7	76494,8
 <i>Eksport</i>	44239,1	75879,9	63955,3
<i>Import</i>	36430,2	27108,8	12539,5
XXR	70147,9	71150,3	69187,1
 <i>Eksport</i>	21619,5	12673,7	22123,5
<i>Import</i>	48528,4	58476,6	47063,6
Rossiya Federatsiyasi	44756,0	55874,6	63529,3
 <i>Eksport</i>	23648,1	37256,8	45599,0
<i>Import</i>	21107,9	18617,8	17930,3
BAA	874,2	809,4	29475,9
 <i>Eksport</i>	125,5	673,3	29434,2
<i>Import</i>	748,7	136,1	41,7
Qozog'iston	25195,2	17294,3	24973,0
 <i>Eksport</i>	12150,8	7344,1	11496,3
<i>Import</i>	13044,4	9950,2	13476,7
Pokiston	9813,5	7024,6	15238,3
 <i>Eksport</i>	9480,3	6839,8	14086,9
<i>Import</i>	333,2	184,8	1151,4
Latviya	1126,9	265,0	15085,4
 <i>Eksport</i>	62,4	210,1	65,1
<i>Import</i>	1064,5	54,9	15020,3
Polsha	3998,1	8981,5	13299,8
 <i>Eksport</i>	3630,8	7522,3	12268,8
<i>Import</i>	367,3	1459,2	1031,0
Misr	1494,7	991,0	8650,7
 <i>Eksport</i>	1475,2	990,6	8634,8
<i>Import</i>	19,5	0,4	15,9
Vetnam	-	1886,5	8240,4
 <i>Eksport</i>	-	1886,4	8178,1
<i>Import</i>	-	0,1	62,3


Davlatlar		2021- y.	2022- y.	2023- y.
Eron Islom Respublikasi		8252,9	16387,7	7945,7
	<i>Eksport</i>	6160,7	13217,6	6570,0
	<i>Import</i>	2092,2	3170,1	1375,7
Qirg'iz Respublikasi		6753,6	14327,3	7924,0
	<i>Eksport</i>	5550,9	9906,7	4330,2
	<i>Import</i>	1202,7	4420,6	3593,8
Tojikiston		7099,4	3068,3	6229,6
	<i>Eksport</i>	6710,7	1221,9	5904,0
	<i>Import</i>	388,7	1846,4	325,6
Hindiston		2061,1	8027,0	5964,4
	<i>Eksport</i>	1414,8	4847,4	4557,0
	<i>Import</i>	646,3	3179,6	1407,4
Germaniya		6342,8	15227,1	4775,8
	<i>Eksport</i>	125,7	1310,6	259,0
	<i>Import</i>	6217,1	13916,5	4516,8
Afg'oniston		9625,5	9648,1	4532,3
	<i>Eksport</i>	9614,3	9460,1	4456,9
	<i>Import</i>	11,2	188,0	75,4
Koreya Respublikasi		3970,4	3086,8	4001,6
	<i>Eksport</i>	6,5	258,5	7,5
	<i>Import</i>	3963,9	2828,3	3994,1
Belarus Respublikasi		1756,8	2990,3	3534,5
	<i>Eksport</i>	547,9	1035,4	1401,4
	<i>Import</i>	1208,9	1954,9	2133,1
Litva		901,2	927,4	3503,8
	<i>Eksport</i>	185,2	0,0	0,0
	<i>Import</i>	716,0	927,4	3503,8
Italiya		1475,3	3201,0	3246,7
	<i>Eksport</i>	0,0	723,4	961,6
	<i>Import</i>	1475,3	2477,6	2285,1



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-avgust oylari)*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	398851,5	105,9	100,0
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	17502,6	112,7	4,4
Dehqonobod	15000,3	183,2	3,8
Qamashi	12190,1	84,2	3,0
Qarshi	55230,3	59,8	13,8
Koson	23903,4	60,0	6,0
Kitob	23626,7	57,7	5,9
Mirishkor	8186,4	54,9	2,1
Muborak	4700,8	55,5	1,2
Nishon	63798,6	8,3 m.	16,0
Kasbi	79443,8	165,9	19,9
Ko'kdala	5353,7	4,1 m.	1,3
Chiroqchi	6622,7	100,4	1,7
Shahrisabz	7416,1	87,3	1,9
Yakkabog'	15583,0	128,5	3,9
Qarshi sh.	55865,0	110,9	14,0
Shahrisabz sh.	4009,2	56,3	1,0
Boshqalar	418,8	2,4 m.	0,1

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari




ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Kasbi tumani **19,9 %** ulush bilan **79443,8** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shahrisabz shahri **1,0 %** ulush bilan **4009,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Qashqadaryo viloyatining, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan.

QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **28,5 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **12,0 %** ga ko'paygan.



Qashqadaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-avgust oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **3,7 %** ga ko'paygan va jami TSAdagi ulushi **71,5 %** ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-avgust oylari holatiga ko'ra, **113545,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **74711,1** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **38834,4** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



QASHQADARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2023- yil yanvar-avgust oylarida ming AQSH dollari)

Rossiya

TSA – 63529,3
Eksport – 45599,0
Import – 17930,3



Qozog'iston

TSA – 24973,0
Eksport – 11496,3
Import – 13476,7



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 7924,0
Eksport – 4330,2
Import – 3593,8



Belarus Respublikasi

TSA – 3534,5
Eksport – 1401,4
Import – 2133,1



Tojikiston

TSA – 6229,6
Eksport – 5904,0
Import – 325,6



Ozarbajjon

TSA – 1937,4
Eksport – 1488,2
Import – 449,1



Moldova Respublikasi

TSA – 2083,2
Eksport – 2083,2
Import – 0,0



Ukraina


TSA – 852,6
Eksport – 671,4
Import – 181,2




Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**61,0 %**), Qozog'iston (**15,4 %**) hamda Qirg'iz Respublikasi (**5,8 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

QASHQADARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-avgust oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



 Qashqadaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **100656,0** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **63522,1** ming AQSH dollari, import hajmi esa **37133,9** ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




QASHQADARYO VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksport bop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **179** taga yetdi va ular tomonidan **257124,6** ming AQSH dollari qiymatini va (2022- yilning mos davriga nisbatan **28,4** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-avgust oylarida ulushi % da)



Qashqadaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-avgust oylari yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	200285,4	257124,6	127,3	128,4	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	28384,4	39983,2	106,1	140,9	14,2	15,6
Ichimliklar va tamaki	419,1	576,4	4,5 m.	137,5	0,2	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	5227,5	2755,0	2,4 m.	52,7	2,6	1,1
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	8223,1	36925,4	61,3	4,5 m.	4,1	14,4
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1111,9	94,3	98,4 m.	8,5	0,6	-
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	59,1	92,6	2,8 m.	156,7	-	-
Sanoat tovarlari	152478,8	169335,2	141,6	111,1	76,1	65,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1447,5	4743,7	8,2 m.	3,3 m.	0,7	1,8
Turli xil tayyor buyumlar	1,9	12,6	3,4	6,6 m.	-	-
Boshqa tovarlar	130,3	273,3	134,5	2,1 m.	0,1	0,1
Xizmatlar	2801,8	2332,9	40,3	83,3	1,4	0,9


Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,1 %** ni tashkil etib, ulardan sanoat tovarlari (**65,9 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**15,6 %**) va mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar (**14,4 %**) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida MDH mamlakatlariga **74711,1** ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **29,1** % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

2023- yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, BAA, XXR, Pokiston, Polsha va Qozog'iston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **77,4** % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-avgust oylari % da)





QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-avgust oylari yillar kesimida)*

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Turkiya	75879,9	63955,3	171,5	84,3	1	1
Rossiya Federatsiyasi	37256,8	45599,0	157,5	122,4	2	2
Birlashgan Arab Amirligi	673,3	29434,2	5,4 m.	43,7 m.	17	3
XXR	12673,7	22123,5	58,6	174,6	4	4
Pokiston	6839,8	14086,9	72,1	2,1 m.	9	6
Polsha	7522,3	12268,8	2,1 m.	163,1	7	7
Qozog'iston	7344,1	11496,3	60,4	156,5	8	5
Misr	990,6	8634,8	67,2	8,7 m.	16	9
Vetnam	1886,4	8178,1	-	4,3 m.	11	8
Eron Islom Respublikasi	13217,6	6570,0	2,1 m.	49,7	3	11
Tojikiston	1221,9	5904,0	18,2	4,8 m.	14	13
Hindiston	4847,4	4557,0	3,4 m.	94,0	10	10
Afg'oniston	9460,1	4456,9	98,4	47,1	6	12
Qirg'iz Respublikasi	9906,7	4330,2	178,5	43,7	5	14
Moldova Respublikasi	1836,6	2083,2	128,0	113,4	12	16
Bangladesh	-	1835,6	-	-	-	15
Ozarbajjon	1274,0	1488,2	-	116,8	13	18
Belarus Respublikasi	1035,4	1401,4	189,0	135,3	15	17
Marokash	-	1355,3	-	-	-	19
Turkmaniston	369,2	1042,1	31,7	2,8 m.	18	20



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2023- yil yanvar-avgust oylari)*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	257124,6	128,4	100,0
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	4351,6	77,5	1,7
Dehqonobod	7643,1	178,8	3,0
Qamashi	7605,0	65,0	2,9
Qarshi	47488,7	71,9	18,4
Koson	21687,5	86,7	8,4
Kitob	6687,3	116,5	2,6
Mirishkor	4803,9	83,2	1,9
Muborak	3103,8	48,3	1,2
Nishon	44908,9	24,3 m.	17,5
Kasbi	70140,9	2,3 m.	27,3
Ko'kdala	4895,7	5,6 m.	1,9
Chiroqchi	5815,9	143,3	2,3
Shahrisabz	6629,8	121,6	2,6
Yakkabog'	5760,5	90,7	2,2
Qarshi sh.	14095,3	73,0	5,5
Shahrisabz sh.	1463,3	111,9	0,6
Boshqalar	43,4	25,2	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Kasbi tumani **27,3 %** bilan **70140,9** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shahrisabz shahri **0,6 %** bilan **1463,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.






To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023- yil yanvar-avgust oylari yakuni bo‘yicha **167207,1** ming AQSH dollari to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **65,0** % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **13,2** % ga ko‘paydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (**87,5** %), tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (**10,1** %) asosiy ulushni egallagan.

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-avgust oylarida ming AQSH dollari)

		2022- yil	2023- yil
Jami		147645,4	167207,1
	Ip kalava	127567,0	146379,2
	Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari	18025,6	16861,6
	Trikotaj mato	944,4	1728,2
	Gazlamalar	1108,4	2238,1
	Paypoq mahsulotlari	-	-

DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI *(yanvar-avgust oylarida ming AQSH dollari)*



		2022- yil	2023- yil	O‘shish sur‘ati, % da
	Turkiya	75291,6	63769,5	84,7
	Rossiya Federatsiyasi	20646,0	30517,6	147,8
	XXR	11382,0	21579,0	189,6
	Polsha	7073,8	11737,5	165,9
	Misr	990,6	8634,8	8,7 m.
	Vetnam	1886,4	8178,1	4,3 m.
	Eron Respublikasi	11005,6	5736,7	52,1
	Qirg‘iz Respublikasi	7515,7	2493,9	33,2
	Moldova Respublikasi	1771,1	2083,2	117,6
	Bangladesh	-	1835,6	-
	Qozog‘iston	1949,4	1814,2	93,1
	Marokash	-	1355,3	-
	Belarus Respublikasi	987,1	1290,0	130,7
	Tojikiston	715,0	1208,0	169,0
	Boshqa davlatlar	6431,1	4973,5	77,3



Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.


To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Turkiya (**38,1 % – 63769,5** ming AQSH dollari) va Rossiya Federatsiyasi (**18,3 % – 30517,6** ming AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-avgust oylari ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **2332,9** ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **0,9** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **16,7** % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi boshqa xizmatlar (**76,0** %), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**22,0** %) va safarlar (turizm) (**2,0** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI



2023- yilning yanvar-avgust oylarida import hajmi **141726,9** ming AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **80,4 %** ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, sanoat tovarlari (**55,4 %**), mashinalar va transport asbob-uskunalari (**13,4 %**) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**9,3 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-avgust oylari ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **34524,5** ming AQSH dollariga kamaydi va **141726,9** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **1307,7** ming AQSH dollariga yetdi.




QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yillar kesimida yanvar-avgust oylari holati)*

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	176251,4	141726,9	89,2	80,4	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14085,1	13474,5	91,3	95,7	8,0	9,5
Ichimliklar va tamaki	-	33,7	-	-	-	0,1
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyolar	960,5	987,4	64,7	102,8	0,6	0,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	6071,2	8427,6	149,3	138,8	3,5	5,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1440,3	874,0	4,0 m.	60,7	0,8	0,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	9747,8	13121,1	66,9	134,6	5,5	9,3
Sanoat tovarlari	113260,6	78470,2	78,0	69,3	64,3	55,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	17652,9	18992,4	155,4	107,6	10,0	13,4
Turli xil tayyor buyumlar	6018,6	5870,2	114,6	97,5	3,4	4,1
Boshqa tovarlar	6594,4	168,1	-	2,5	3,7	0,1
Xizmatlar	420,0	1307,7	-	3,1 m.	0,2	0,9

2023- yil yanvar-avgust oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **27,4 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **3,6 %** ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

2023- yil yanvar-avgust oylarida Qashqadaryo viloyati **55** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya Federatsiyasi, Latviya, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya va Koreya Respublikasi) jami importning **80,8 %** ni tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-avgust oylari % da)





QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI

(yillar kesimida yanvar-avgust oylari holati)

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
XXR	58476,6	47063,6	120,5	80,5	1	1
Rossiya Federatsiyasi	18617,8	17930,3	88,2	96,3	3	4
Latviya	54,9	15020,3	5,2	273,6 m.	20	2
Qozog'iston	9950,2	13476,7	76,3	135,4	5	3
Turkiya	27108,8	12539,5	74,4	46,3	2	5
Germaniya	13916,5	4516,8	2,2 m.	32,5	4	6
Koreya Respublikasi	2828,3	3994,1	71,4	141,2	10	8
Qirg'iz Respublikasi	4420,6	3593,8	3,7 m.	81,3	7	9
Litva	927,4	3503,8	129,5	3,8 m.	18	7
Italiya	2477,6	2285,1	167,9	92,2	11	12
Belarus Respublikasi	1954,9	2133,1	161,7	109,1	13	13
Amerika Qo'shma Shtatlari	1095,5	1791,3	69,7	163,5	16	10
Yaponiya	7114,1	1719,2	5,5 m.	24,2	6	11
Hindiston	3179,6	1407,4	4,9 m.	44,3	8	15
Eron Islom Respublikasi	3170,1	1375,7	151,5	43,4	9	17
Kanada	935,2	1275,6	58,7	136,4	17	14
Pokiston	184,8	1151,4	55,5	6,2 m.	19	18
Polsha	1459,2	1031,0	4,0 m.	70,7	15	16
Niderlandiya	2336,7	849,7	114,0	36,4	12	19
Turkmaniston	1778,7	744,6	88,7	41,9	14	20



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-avgust oylari)

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	141726,9	80,4	100,0
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	13151,0	132,6	9,3
Dehqonobod	7357,2	188,0	5,2
Qamashi	4585,1	164,7	3,2
Qarshi	7741,6	29,4	5,5
Koson	2215,9	14,9	1,6
Kitob	16939,4	48,1	11,9
Mirishkor	3382,5	37,0	2,4
Muborak	1597,0	78,0	1,1
Nishon	18889,7	3,2 m.	13,3
Kasbi	9302,9	52,9	6,6
Ko'kdala	458,0	111,1	0,3
Chiroqchi	806,8	31,8	0,6
Shahrisabz	786,3	25,8	0,5
Yakkabog'	9822,5	170,2	6,9
Qarshi sh.	41769,7	134,6	29,5
Shahrisabz sh.	2545,9	43,8	1,8
Boshqalar	375,4	-	0,3

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Qarshi sh. 41769,7

Nishon 18889,7

Kitob 16939,4

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Ko'kdala 458,0

Shahrisabz 786,3

Chiroqchi 806,8

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qarshi shahri **29,5** % bilan **41769,7** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Ko'kdala tumani **0,3** % bilan **458,0** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Qashqadaryo investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-avgust oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunolari hajmi **18992,4** ming AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **7,6 %** ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **13,4 %** ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-avgust oylari)




2023- yil yanvar-avgust oylarida mashina va transport asbob-uskunolari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1339,5** ming AQSH dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR – **11818,8** ming AQSH dollari (**62,2 %**), Rossiya Federatsiyasi - **1447,0** ming AQSH dollari (**7,6 %**) va Turkiya – **739,7** ming AQSH dollari (**3,9 %**) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-avgust oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **78470,2** ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **30,7** % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **55,4** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-avgust oylari ulushi, % da)

28376,6 ming
AQSH doll.
ulushi – 36,2 %

10851,0 ming
AQSH doll.
ulushi – 13,8 %

7154,1 ming
AQSH doll.
ulushi – 9,1 %



XXR



Turkiya



Rossiya
Federasiyasi

14596,5 ming
AQSH doll.
ulushi – 18,6 %

2784,5 ming
AQSH doll.
ulushi – 3,5 %



Latviya



Koreya
Respublikasi




2023- yil yanvar-avgust oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **34790,4** ming AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR- **28376,6** ming AQSH dollari (**36,2** %), Latviya - **14596,5** ming AQSH dollari (**18,6** %) va Turkiya – **10851,0** ming AQSH dollari (**13,8** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-avgust oylari ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-avgust oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **1307,7** ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining **0,9** % ini tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (**81,6** %), ga tegishli bo'ldi.